

**O'RTA OSIYO XALQLARI OG'ZAKI VA PROFESSIONAL MUSIQASINING
SHAKLLANISH TARAQQIYOTI****Karimov Saxob Baxromovich****Jizzax davlat pedagogika universiteti Musiqiy ta'lim kafedrası o'qituvchisi****E-mail: karimovsaxob1@gmail.com****Tel: +998990834259**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20390139>

Eramizning IV asridan boshlab O'rta Osiyoda quldorchilik astasekin feodal tuzum bilan almashdi. O'rta Osiyoda yashagan turklar o'z davlatining so'nggi qismini hoqonlik deb atay boshladilar. Ana shu vaqtdan boshlab turklar bilan mahalliy Sharqiy Eron xalqlarining qo'shib yashash jarayoni boshlanadi. IV-VII asrlargacha bo'lgan davr madaniyat va san'at turlarining, jumladan musiqaning yuqori darajada rivojlangani bilan xarakterlanadi.

Butun Sharqqa mashhur bo'lgan va keyinchalik Sharq adabiyoti klassiklari asarlarida tasvirlangan O'rta Osiyoning yirik sozanda va xonandasi, o'nlab kuylar ijodkori Barbad (yoki Faxlobod) ning nomi mashhur bo'ldi. Marv (Turkmaniston dagi hozirgi Mari) shahrida istiqomat qilgan Barbad VII asr boshlarida Eron sasoniylari sulolasida bo'lgan Xisrav saroyida xizmat qildi. Tarixchilar bergan ma'lumotlardan ma'lumki, Barbad madhiya va tarixiy qo'shiqlar, harbiy g'alabalar to'g'risi da qo'shiqlar ijod etgan. Ozarbayjon adabiyotining klassigi Nizomiy «Xisrav va Shirin» dostonida Barbadning san'at shinavandalariga kuchli yordami haqida yozgan. Taspiriy san'atning ko'p sonli obidaları hozirgi davrning qurollari va musiqadagi urf-odat ishtirokchilari ma'lumotlar beradi. Qadimgi Panjikentdan topilgan yorqin naqshlar ana shular jumlasidandir. Unda ikki tomonli nog'ora va doira jo'rligida raqsli sahna, sopol idishda dafn marosimida ayol kishining marosim raqsini ijro etib turgan payti gavdalanitirilgan yorqin tasvir uchraydi. Kumush laganga ov manzarasi, ashula va raqs ishtirokidagi ziyofat naqshlangan.

Ehtimol, o'zbek baxshilari turk xalq xonanda azonchilarining ijodiga mansub ifoda uslublaridan foydalangandir, zeroki buni o'zbek folklorining rang-barangligi, uning kuy, lad va ayniqsa, ritmik tuzilishida ko'rish mumkin.

Shunday qilib, VII-VIII asrlarga kelib mahalliy musiqa an'analari aniq bo'lib qoldi, xalq va professional musiqaning og'zaki an'analari shakli vujudga keldi.

Arablar hukmronligi davri (VIII - IX asrlar) tarixda islom dinini majburan qabul qildirish va mahalliy xalqlarning to'xtovsiz qo'zg'olonlari bilan joy oldi. Bu qo'zg'olonlar aholining mehnatkash tabaqalari manfaatlarini ifodalovchi Muqanna rahbarligida "Oq kiyimlilar" nomi bilan mashhur bo'lgan juda katta xalq harakati (785 yil) ga turtki bo'ldi. Mahalliy ziyolilar ham arab bosqinchilariga bo'lgan munosabatini yashirin oppozisiyada bayon qildilar. Bu oppozisiya shuubiylar harakatini keltirib chiqardi. Ular o'zlarining arab tilida yaratgan ilmiy ishlarida arablar tazyiqidagi xalqlarning ustun madaniyatga ega ekanligini ta'kidladilar. Shuubiylar arablarning islomgacha bo'lgan ibtidoiy madaniyatlariga o'zlarining qadimgi madaniyatlarini qarama-qarshi qo'ydilar.

Arablar o'z navbatida musiqa san'ati sohasida mahalliy aholidan ko'pgina narsalarni o'rganib oldilar. A.Isfahoniyning arab tilida yozilgan «Qo'shiqlar kitobi»ga ko'ra juda ko'p O'rta Osiyo kuylaridan arablar foydalangan. Masalan, Musadjiq nomi bilan mashhur bo'lgan birinchi arab 6 kun qo'shiqchisi O'rta Osiyoda (boshqa mamlakatlar qatori) ham bo'lib, turli xil kuylarni tanlab oldi va ular zaminida qo'shiqlar ijrosi sistemasini yaratdi. Boshqa bir qo'shiqchi Ibn Muhriz esa birinchi bo'lib O'rta Osiyolik qo'shiqchilardan o'rgangan holda arab baytlari ni ijro eta boshladi.

Al Forobiy turli xil asboblarni tovush qatorlarini o'rgana borib, Xuroson tanburiga alohida e'tibor berganining o'zi ham mahalliy musiqa asboblarning ahamiyati katta ekanligidan guvohlik beradi.

Somoniylar davlatida musiqali hayot (IIX - X asrlar)

O'rta Osiyo xalqlarining bosqinchilar zulmiga qarshi aktiv kurashi tufayli IX asrda hokimiyat Somoniylar sulolasi qo'liga o'tdi. O'rta Osiyo rivojlangan feodalizm pallasiga kirdi. Feodal xonliklar mustahkamlandi, shaharlar o'sdi, savdo jonlandi. O'rta Osiyo Somoniylar davrida O'rta Osiyo deyarli yuz yil mobaynida chet el bosqinchilarining hujumiga duch kelmadi, bu esa mamlakat xo'jaligi va madaniyatining rivojlanishiga imkon berdi.

Bu davrda ajoyib olimlar, shoirlar, musiqachilar: mashhur matematik va astronom Ahmad Farg'oniy, yirik olim, algebra risolasining avtoru Muhammad ibn Muso Xorazmiy, o'rta asr Sharqining taniqli faylasufi, musiqa sohasidagi ishlari zamondoshlari hamda undan keyingi musiqachilar avlodi uchun asos bo'lgan Forobiy, o'rta asrdagi barcha fanlarga katta hissa qo'shgan O'rta Osiyoning X-XI asrlardagi buyuk olimlari Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037) yashab ijod qildi. Somoniylar davlati shaharlari orasida Buxoro katta shuhrat qozondi. Buxoro ekonomika va madaniyat markaziga aylandi, alabiyot va musiqa rivojlandi.

Saroy shoirlari va musiqachilarining ijodida asosiy janr hukmron shaxslarni maqtaydigan va sharaflaydigan qasida edi. Uning muqaddima qismi (nasib) ga cholg'u asbobi jo'r bo'lar edi. Cholg'u asbobi ba'zan biron-bir kechalarda qasidadan alohida holda ham ijro etilishi mumkin edi. Nasibdan musiqali- poetik san'atning, ya'ni musiqachi-qo'shiqchi mutrib tomonidan ijro etiladigan mustaqil formasi g'azal tug'ildi.

Madhiya xarakteridagi musiqali she'riy asarlar bilan bir qatorda ilgor ijtimoiy qarashlar va kayfiyatlarni ifodalovchi qo'shiqlar ham ijod qilinardi. Ba'zan hajviy qo'shiqlarda shoir-musiqachilar podsho va amaldorlarning xasis hamda past kashligi, ruhoniylarning qizg'anchiq, ikkiyuzlamachi va mutaassibliigi ustidan kulardilar. Ko'pincha erkinlikka chaqiruvchi dadim so'zlar kinoya va qo'chiriqlar ortiga yashiringan bo'lardi. Bunday qo'shiqlar omma o'rtasida juda tez tarqalar. X asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan buyuk she'r ustasi va ajoyib musiqachi so'qir (rivoyatga ko'ra) Rudakiy kabi avtorlar esa shuhrat qozongan edi. Bu davrga kelib xalq ogzaki ijodida qadimgi epik afsona va hikoyalarga qiziqish kuchaydi. Asosida ikki misrasi o'zaro qofiyalangan o'n bir bo'g'inli muta qarib vazi yotgan professional qahramonlik eposlari vujudga keldi. O'rta Osiyo xalqlarining eposidan o'zining ajoyib «Shohnoma» dostonini yaratishda Firdavsiy unumli foydalangan. Bu asar o'sha davr musiqasi, musiqali hayoti, musiqa asboblarni o'rganish uchun ham boy manba hisoblanadi. Masalan: saroy ziyofatlari manzarasining tasviri:

Darxol kushka to'ldi azizlar.

Botirlar, soqiylar, xushdil xushxonlar.

Changni o'rinlatib chalg'uvchilar ham

Guluz qizlar-xizmat qiladilar.

Rumiy shohi kabi chexiralar gulgun,

Chang'irida dillar xayir mamnun.

O'sha davrda arfa va ud tipidagi torli hamda puflab chalinadigan nay tipidagi asboblarni keng tarqaldi. Udsimonlardan kvarta bo'yicha sozlanadigan, besh-olti juft torli ud qo'llanilar edi. Ud egiluvchan patga o'xshash plektor bilan chalinardi. Dar- vishali Changiy udni «barcha musiqa asboblarning podshosi» deb baholagan edi. «Shohnoma»da eslatilgan torli-nohunli asbob rud ham keng tarqalgan edi. Chang, nay va rud sadolariga bo'lgan muhabbati to'g'risida keyinchalik XIV asr

shoiri Hofiz to'ldinlanib yozgan edi. Doira ham keng tus olgan edi. Uning tasviri «Shohnoma»ga ishlangan turli xil miniatyuralarda va boshqa qo'lyozmalarda tez-tez uchrab turadi. Rudakiy qasidalarida chang va to'rt torli barbadni eslatiladi. Forobiy tovushlarining xarakterlariga qarab musiqa asboblari xilma-xil rol o'ynaganini saqlab qoladi.

Forobiy tovushlarining xarakteriga ko'ra musiqa asboblari xilma-xil rol o'ynaganini ko'rsatib o'tadi: «Janglarga mo'ljallangan cholg'u asboblari mavjud, ularning ovozi baland va keskin. Ziyofat va raqslar uchun, to'y va quvnoq yig'ilishlar uchun, muhabbat qo'shiqlari uchun ham maxsus cholg'u asboblari bor. Ayrimlarining tovushi keskin va hazin bo'ladi; bir so'z bilan ayt ganda, ular shunchalik ko'p, shunchalik xilma-xilki, hammasini sanab o'tish qiyin». Somoniylar davrida cholg'u asboblari ijrolik keng ko'lamda rivojlandi.



Musiqiy me'rosning qaysiki turida ish olib borilishidan qat'iy nazar, tadqiqotchi uchun hududiy chegaralarni aniqlash biroz qiyinchilik tug'diradi, chunki davlatlarning zamonaviy chegaralanishi unchalik uzoq bo'lmagan davrda vujudga kelgan. O'rta Osiyo hududida Parfiya, Sug'diyona, Baqtriya, Xorazm kabi turli davlatlarning vujudga kelganligi bizga tarixdan ma'lum. IX-X asrlarda Eron va Afg'oniston davlatlari hududida Buxoro xonligining erlari bo'lgan. XII asrda Xorazm hukmronligining shimoliy Hindistongacha bo'lgan juda kata hududini egallagan edi. XVI asrda mo'g'ul imperiyasi vayronalarida Temurning buyuk saltanati yuzaga keladi va Samarqand uning markazi bo'lgan. Shuning uchun musiqiy cholg'ularning yaratilishi va rivojlanishi faqatgina bir xalqning mahsuli deb hisoblash noto'g'ri. Ular ko'p asrlik rivojlanish natijasida, o'zaro ta'sir va o'zaro aloqalar orqali

vujudga kelgan.

X asrdan keyingi davrlarda musiqaning nazariy va amaliy rivojlanishi yanada chuqurlashdi. XI-XIII asrlarda Safiuddin Urmaviy va Mahmud Sheroziy kabi olimlarning ilmiy risolalarida Sharq musiqasining o'n ikki maqom tizimi mukammal nazariy shaklga keltirildi. XIV-XV asrlarga kelib, ya'ni Temuriylar renessansi davrida O'rta Osiyo musiqa san'ati o'zining oltin davrini boshdan kechirdi. Samarqand va Hirot kabi yirik madaniy markazlarda saroy maqom ansambllari shakllandi, xalq va professional musiqaning og'zaki an'analari yanada sayqallandi. Xoja Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar musiqashunoslik ilmini, bastakorlik maktablarini va cholg'u ijrochiligini yangi bosqichga ko'tardilar. Ayniqsa, dutor va tanbur kabi milliy cholg'ularning ilmiy tavsiflari yozildi hamda mumtoz she'riyat bilan musiqaning sintezi oliy darajaga yetdi.

Umumiy xulosa qilib aytganda, IV asrdan XV asrgacha bo'lgan uzoq tarixiy davrda O'rta Osiyo xalqlari musiqasi oddiy xalq ijodiyoti doirasidan chiqib, ilmiy asoslangan, chuqur falsafiy va professional maktablarga ega bo'lgan yirik tizimga aylandi. Ushbu murakkab taraqqiyot yo'li va Temuriylar davridagi yuksak musiqiy madaniyat keyingi asrlarda mintaqada o'zbek xalqining eng

oliy nomoddiy merosi bo'lgan "Shashmaqom" va Xorazm maqomlari kabi klassik turkumlarining to'laqonli shakllanishi uchun eng asosiy tayanch poydevor vazifasini o'tadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Rajabov I. *Maqomlar masalasiga doir.* — Toshkent: Fan, 1963.
2. Isxoqov B. *Markaziy Osiyo xalqlari musiqa tarixi.* — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014.
3. O'zbek xalq musiqasi. (Ko'p jildlik) — Toshkent: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1955-1960.
4. G'ofurbekov T. *Musiqa merosimiz va uning zamonaviy hayoti.* — Toshkent: Sharq, 2002.
5. Solomonova T. E. — [O'zbek musiqasi tarixi](#) (Toshkent, "O'qituvchi", 1981). Mintaqa qadimgi va ilk o'rta asrlar musiqa madaniyatini tizimli yoritgan fundamental asar.
6. Madrimov B. — O'zbek musiqa tarixi (Toshkent, 2019). Qadimgi Baqtriya, So'g'diyona va Xorazm musiqa madaniyatini qamrab olgan o'quv qo'llanma.
7. Odilov A. — O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi (Toshkent, "O'qituvchi", 1995). Qadimgi torli va puflama cholg'ular tarixi tahlil qilingan.
8. Vyzgo T. S. — *Музыкальные инструменты Средней Азии. Исторические очерки* (Москва, "Музыка", 1980). Afrosiyob va Panjakent arxeologik yodgorliklaridagi cholg'ularni ilmiy tahlil qilgan eng mukammal monografiya.
9. Avesto — Muqaddas kitob matnlari (X. Hamidov, "Avesto fayzlari", Toshkent, 2001). Ilk bor musiqali-poetik sinkretik ijod va diniy qo'shiqlar haqida ma'lumot beruvchi qadimgi manba.
10. Abu Nasr Forobiy — *Kitab al-musiqa al-kabir* ("Musiqa haqidagi katta kitob"). Ilk o'rta asrlar musiqiy akustikasi, cholg'ulari (tanbur, barbat) va nag'malar tizimini asoslab bergan nodir asar.
11. Qo'shayev I. — [O'rta Osiyo xalqlarining musiqa ijodi](#) (Xalqaro konferensiya materiallari, 2023). Qadimgi o'troq va ko'chmanchi qabilalar musiqiy munosabatlari tahlili.
12. Jo'rayev A. Y. — [O'rta Osiyo hududida qadimgi davr musiqa madaniyati. Cholg'ulari tarixi](#) (Ilmiy maqola, Termiz, 2022). Terrakota va devoriy suratlarda ud, arfa, chang cholg'ularining aks etishi.